

Surxondaryoda «Surxon milliy qadriyatlar beshigi» shiori ostida yoshlar forumi bo'lib o'tdi



Surxondaryoda «Surxon milliy qadriyatlar beshigi» shiori ostida yoshlar forumi bo'lib o'tdi

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning iste'dolarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishga qaratilgan besh tashabbus loyihalarini yangicha tashkil etish hamda muammo va takliflarini erkin bildira olishlari uchun maydon yaratish maqsadida tashkil etilgan «O'zbekiston yoshlari forumi - 2021» haftaligi doirasida Termiz shahridagi «Bolajon» istirohat bog'ida tashkil etilgan tadbirda ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan hamda turli xalqlarning milliy o'yinlari o'tkazildi.

Forumda Termiz shahri va tumanlar o'rtasida o'tovlar ko'rgazmasi tashkil etildi. Ko'rgazma doirasida har bir shahar va tumanlar o'zining milliyligini aks ettiruvchi urf-odat va qadriyatlar hamda hududda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar namoyishi o'tkazildi.

Mahalladan viloyat bosqichigacha o'tkazilgan «O'zbekiston yoshlari forumi» tadbirlari orqali 600 ming nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi.

Shuningdek, forum doirasida, yoshlar o'rtasida ko'chalararo, mahallalararo yo'nalishida sportning qator turlari bo'yicha «Sektor rahbari kubogi» musobaqalari, «Kamalak yulduzlari - 2021» bolalar ijodiyoti festivali, «Munozara» intellektual turniri, «Yil talabasi» ko'rik-tanlovlari, Axborot texnologiyalariga qiziquvchi yoshlar o'rtasida kibersport hamda «Bir million dasturchi» loyihalari, kitobxonlikni yoshlar o'rtasida targ'ib qilish maqsadida «Zukko kitobxon», «Mahallam kitobxoni» kabi loyihalar, yoshlarni bandligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar va muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar tomonidan yoshlar uchun biznes-trening va motivatsion uchrashuvlar tashkil etildi.



